





## AMIR TEMURNING TO'XTAMISHXONGA QARSHI YURISHLARINI SABABLARI

MAMAJONOV SOYIBJON HALILOVICH

Farg'ona Davlat Universiteti harbiy ta'lim fakulteti  
katta o'qituvchisi.

### ARTICLE INFO

Received: 14<sup>th</sup> October 2023

Accepted: 16<sup>th</sup> October 2023

Online: 16<sup>th</sup> October 2023

### KALIT SO'ZLAR

sarkardalik iste'dodi, O'rdalar,  
Oltin O'rda, harbiy yurishlar,  
To'xtamishga qarshi, Terek  
daryosi, qurolyarog'lar va  
anjomlarga, qo'shin, ulus, Jo'chi,  
O'risxon.

### ANNOTATSIYA

*Ushbu maqolada Amir Temurning To'xtamishxonga qarshi yurishlarini sabablari xaqida qisqa yoritilgan. Ushbu maqola Oliy va O'rta maxsus ta'lim muassasalari talabalariga harbiy san'at sirlari bilan yaqindan tanishish uchun mo'ljallangan.*

Amir Temurning sarkardalik iste'dodi uning To'xtamishga qarshi, Hindistondagi yurishlari chog'ida va hamda turk sultoni Boyazid Yildirimga qarshi kurashlarida yaqqol namoyon bo'ldi.

Amir Temur Oltin O'rdaning qanday xavf solib turganidan boxabar edi. 1360 yildan 1380 yilgacha, ya'ni 20 yil ichida Oltin O'rdada 25 marta xon almashdi. Oq O'rdaning hukmdori O'risxon 1375 yilda Jo'chi ulusining ikki qismi - Oltin O'rda va Oq O'rdani birlashtirishga qaror qildi. O'rdalar birlashib Amir Temur davlatiga jiddiy xavf tug'dirishi mumkin edi. Bu xavfni oldini olish uchun Amir Temur yuzaga kelgan vaziyatdan mohirlik bilan foydalandi.

Oq O'rdaning O'zbek amirlaridan biri To'y Xo'ja o'g'lon Oltin O'rdaga qarshi harbiy yurishga ishtirok etishdan bosh tortganligi uchun O'risxon tomonidan o'ldirildi. To'y Xo'ja xonning o'g'li To'xtamish o'g'lon 1376 yilda Oq O'rdadan qochib Samarqandga keldi.

Amir Temur undan O'risxonga qarshi kurashish uchun foydalanishga qaror qildi. Amir Temur To'xtamishni Jo'chi ulusida uning siyosatini yurgizuvchi kishi bo'ladi deb o'ylagan edi. Lekin buning aksi bo'lib chiqdi. Amir Temurning yordami bilan Oq O'rdaning xoniga aylangan To'xtamish O'risxonning izidan bordi, ya'ni u Jo'chi ulusini birlashtirishni va qudratli Oltin O'rdani yaratish uchun kurashni boshladi. Oq O'rdaning hukmdoriga aylangan To'xtamish (1377 y.), o'zining raqibi va soxta xon Mamayxonning

Kulikovo dalasida rus knyazi Dmitriy Donskoydan chekkan mag'lubiyatidan foydalanishga qaror qildi va shu yili Kalka daryosi yoqasida Mamayxonning qolgan qo'shinini yakson qildi. Bu g'alabadan keyin To'xtamish Oltin O'rdaning oliy hukmdori – xoni bo'ldi va Jo'chi ulusining ikkala qismini birlashtirishga kirishdi.

Amir Temur bilan shijoatli va makkor To'xtamish o'rtasidagi kelishmovchiliklar ochiqchasiga kurash tusini oldi.

To'xtamish O'zbekxon davridagi (1312–1320 y.) Oltin O'rdaning qudratini tiklashga harakat qildi. Yangi yerlarni zabt etish uchun u harbiy yurishlarni boshladi. 1386 yilda To'xtamish qo'shini Ozarbayjonga bostirib kirdi. U Tabrizni zabt etdi, Ozarbayjonning ko'pgina shaharlari talontaroj qilindi va vayronaga aylantirildi.

1387–1388 yillarda Amir Temurning Movarounnahrda bo'lmaganligidan foydalangan To'xtamish davlat ichkarisiga hujum boshladi. U Samarqand va Buxoro viloyatlari hududiga bostirib kirdi. Shaharlar Oltin O'rdaliklar tomonidan qurshab olindi. Bu vaqtda Eronda turgan Amir Temur 30 minglik qo'shinni Movarounnahrda yordamga jo'natdi, o'zi ham shoshilinch ravishda vataniga qaytdi. To'xtamish chekindi, lekin u Xorazm hukmdori Sulaymon So'fini Amir Temurga qarshi kurash uchun o'ziga birlashishga ko'ndirdi. Bu voqealar Sohibqironni 1388 yilda Xorazmga beshinchi – oxirgi yurishni amalga oshirishga majbur qildi. U Urganchni bosib oldi va So'fi sulolasi hukmdorligini tugatdi.

To'xtamishning Samarqand va Buxoroga yurishi alohida hududni bosib olish istagi uchun emas, balki To'xtamishni Sohibqironning siyosatiga qarshi yo'naltirilgan kurashining ifodasi ekanligiga shubha qoldirmadi.

Amir Temurning To'xtamishga qarshi uchta yurishidan (1389, 1391, 1395 y.) ikkita oxirgisi, ayniqsa 1395 yilda uni Terek daryosi bo'yida tormor etilishi harbiy san'atning rivojlanishi nuqtainazaridan katta e'tiborga sazovor.

1391 yilning qishida Sohibqiron To'xtamish tomonidan kutilayotgan xavfni bartaraf etishga va Oltin O'rdaning Misr mamluklari bilan birga Temur davlatiga qarshi ittifoq tuzishiga yo'l qo'ymaslikka qaror qildi. U To'xtamishga qarshi yurishni boshlash uchun qo'shinni to'plashga farmon berdi. Qo'shin uchun oziqovqat zaxiralari to'plandi. Yig'ilgan qo'shin Samarqanddan chiqib, Xo'jand shahri yaqinida qurilgan ko'prikdan Sirdaryoni kechib o'tdi. Toshkentda Temur o'z qo'shinining ko'rigini

o'tkazdi. Jangchilarga kerakli qurollar va anjomlarga ega bo'lishlariga buyruq berildi. 1391 yilning 19 yanvarida qo'shinning ko'rigi vaqtida Amir Temur Jo'chi ulusiga urush e'lon qildi. U o'z qo'shinini safar tartibiga safladi va har bir kolonnaga yo'l boshchilarni tayinladi.

Sohibqironning qo'shini avangard (*manglay*), markaz (*qo'l*), o'ng va chap qanotlar (*barang'or* va *juvang'or*) dan tashkil topdi. Dushmanning to'satdan beradigan zarbasini oldini olish uchun Amir Temur jangchilarga o'z qismlarini tark etmaslikka, katta va kichik qalqonlarni tayyorlashga, lagerda joylashganda kerak bo'ladigan xandaqlar qazish uchun anjomlar olishga, doimo razvedkani olib borish guruhlarini oldindan tayyorlashga buyruq berdi. Lagerni qo'riqlash uchun u 30 mingta jangchilarni tayinladi, ular lagerning atrofini patrullik yo'li bilan qo'riqlab turishlari kerak edi. Oltin O'rda jangchilarini chekinishlariga yo'l qo'ymaslik uchun Amir Temurning kichik otryadlari yolg'ondakam harakatlari bilan dushmanning bo'linmalari va qismlarini oldindan qulay joyda o'rnatilgan pistirmalariga tushirishlari kerak bo'lgan.

Amir Temur janglarga doymu shunday mukammal tayyorgarliklarni ko'rgan. U dushman haqidagi ma'lumotlarni va joyni hususiyatini puhta o'rganib chiqqach undan hulosa qilgan o'z qo'mondonlariga yashirin holda kerakli tavsiyalarni bergan.

#### FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:

1. Ortiqovich, U. A., Ibragimovich, A. I., & Xoshimovich, A. B. (2022). MAKEDONIYALIK ISKANDARNING HINDISTONGA QILGAN YURISHI. *Journal of new century innovations*, 16(2), 12-14.
2. Ibragimovich, A. I., Murotjon o'g'li, T. B., & Valijon o'g, T. T. U. (2022). HARBIY XIZMATGA TAYYORLASH VA VATANPARVARLIK RUHIDA TARBIYALASH. O'ZBEKISTONDA FANLARARO INNOVATSIYALAR VA ILMIY TADQIQOTLAR JURNALI, 1(12), 968-974.
3. Ortiqovich, U. A., Ibragimovich, A. I., & Xoshimovich, A. B. (2022). MAKEDONIYALIK ISKANDARNING HINDISTONGA QILGAN YURISHI. *Journal of new century innovations*, 16(2), 12-14.
4. Ortiqovich, U. A., Ibragimovich, A. I., & Xoshimovich, A. B. (2022). MAKEDONIYALIK ISKANDARNING HINDISTONGA QILGAN YURISHI. *Journal of new century innovations*, 16(2), 12-14.
5. Ахунов, И. И. (2022). ХАРБИЙ ВАТАНПАРВАРЛИК ТАРБИЯСИНИНГ МЕТОДОЛОГИК НАЗАРИЙ АСОСЛАРИ. ИЮДКОР О'ҚИТУВЧИ, 2(23), 204-210.

6. Hasanboyevich, M. A., Khalilovich, M. S., & Mirhokimovich, T. A. (2022). Main Problems of Military-Professional Activity Orientation of Young Students. *Periodica Journal of Modern Philosophy, Social Sciences and Humanities*, 4, 68-70.
7. Hasanboyevich, M. A., Halilovich, M. S., & Ortikovich, U. A. (2022). AMIR TEMUR ARMIYASINING TASHKIL ETILISHI VA TUZILISHI. O'ZBEKISTONDA FANLARARO INNOVATSIYALAR VA ILMIY TADQIQOTLAR JURNALI, 1(12), 1037-1040.
8. Mamajonov, S. (2022). ЁШЛАР ЎРТАСИДА ҒАЙРИИЖТИМОЙ ХУЛҚ-АТВОР ТАРҚАЛИШИГА ҚАРШИ КУРАШНИНГ ҲУҚУҚИЙ ЧОРАЛАРИНИ ТАКОМИЛЛАШТИРИШ. *Science and innovation*, 1(C6), 323-334.
9. Khalilovich, M. S. (2022). Sultan Jalaliddin Manguberdi's Struggle Against the Mongolia Invasion. *Zien Journal of Social Sciences and Humanities*, 5, 80-81.
10. Khalilovich, M. S. (2022). AT THE SAME TIME, SPITAMEN'S CAVALRY WAS THROWN INTO THE RIVER, AND AN ATTEMPT WAS MADE TO HIDE ON ONE OF THE ISLANDS IN THE MIDDLE OF THE RIVER. *Galaxy International Interdisciplinary Research Journal*, 10(2), 615-617.
11. Uzokov, A. O., Mamadolimov, A. K., & Toshpulatov, A. M. (2021). THE TECHNOLOGIES OF COLLABORATIVE EDUCATION AND ITS COMPONENT EDUCATION DURING THE LESSON. *Актуальные научные исследования в современном мире*, (2-5), 50-53.
12. Мамажанов, С. Х. (2022). СЕЛ ВА УНИНГ ОҚИБАТЛАРИ. *Oriental renaissance: Innovative, educational, natural and social sciences*, 2(10), 905-909.